

Date: 13th June-2026

**MAKROIQTISODIY KO'RSATGICHLAR O'ZARO BOG'LIQLIGINI
BAHOLASHDA KORRELLATSION-REGRESSION TAHLILDAN
FOYDALANISH**

Erdonova Maxfuza Mardon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda korrelyatsion-regression tahlil usullarining ahamiyati yoritilgan. Yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya darajasi, ishsizlik va investitsiyalar kabi asosiy ko'rsatkichlarning bir-biriga ta'siri statistik usullar asosida baholangan.

Kalit so'zlar: makroiqtisodiyot, korrelyatsiya, regressiya, yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya, investitsiya, iqtisodiy o'sish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining holatini baholash va kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Statistik tahlil usullaridan biri bo'lgan korrelyatsion-regression tahlili iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini o'rganishga xizmat qiladi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qatoriga yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya darajasi, ishsizlik ko'rsatkichi, investitsiyalar hajmi, eksport va import hajmlari kiradi. Ushbu ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi va natijada YaIMning o'sishiga olib keladi.

Korrelyatsion tahlil yordamida ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlanadi. Korrelyatsiya koeffitsienti qiymati +1 ga yaqin bo'lsa, ko'rsatkichlar o'rtasida kuchli to'g'ri bog'liqlik mavjudligi, -1 ga yaqin bo'lsa, teskari bog'liqlik mavjudligi anglatadi. Nolga yaqin qiymatlar esa bog'liqlikning sust ekanligini bildiradi.

Regression tahlil esa bir ko'rsatkichning boshqa omillar ta'sirida qanday o'zgarishini matematik model orqali ifodalaydi. Masalan, YaIMning o'sishiga investitsiyalar va inflyatsiya darajasining ta'siri regressiya tenglamasi orqali baholanishi mumkin. Bu esa iqtisodiy prognozlar tuzish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, korrelyatsion-regression tahlil makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklarni chuqur o'rganish, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur usullardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.



Date: 13th June-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Abdullayev Yo. *Statistika nazariyasi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.

Salvatore D. *Managerial Economics in a Global Economy*. – New York: Oxford University Press, 2019.

Gujarati D. N. *Basic Econometrics*. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.

